

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI  
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.  
ILMIY  
XABARLAR**

1995 yildan nashr etiladi  
Yilda 6 marta chiqadi

1-2023

**НАУЧНЫЙ  
ВЕСТНИК.  
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года  
Выходит 6 раз в год

**Sh.I.Nurmuradova**

Texnika oliv o'quv yurtlarida rus tilini o'qitish metodikasi va uni tashkil etilishi .....	439
<b>R.N.Nazimov</b>	
Pedagogik texnologiyalar va xorijiy tajribalarning xorij ta'lomidagi ahamiyati va uni O'zbekistonda amalga oshirish asoslari.....	445
<b>D.A.Raximjonova</b>	
Ingliz tilshunosligida kompyuter dasturiy ta'minot atamalarining tuzilish xususiyatlari. ....	448
<b>N.Sh.Mamadov</b>	
Amir Temur faoliyatining yoshlarni ma'naviy kamol toptirishdagi roli .....	453
<b>N.D.Djalilova</b>	
Talabalar kommunikativ kompetentsiyani takomillashtirish videomateriallari .....	456
<b>A.U.G'ofurov</b>	
Sport turizmini rivojlantirishning tashkiliy va ijtimoiy-pedagogik asoslari .....	461
<b>O.T.Karimov, F.N.Nurqulov, A.T.Djalilov</b>	
Organik kislota tuzlari bilan modifikatsiyalangan polietilenni termik xususiyatlarini tadqiq etish .....	467
<b>R.N.Muminova</b>	
Madaniy o'simliklarni etishtirishda xlorelladan foydalanish .....	470
<b>A.E.Axtyamov</b>	
Reklama matnlarining pragmalingistik tahlilida tekstuallikning yetti mezoni .....	474
<b>N.V.Nosirov</b>	
Bo'lajak texnologiya fani o'qituvchilarining metodik kompetentligini rivojlantirish jarayonini takomillashtirishning pedagogik shart-sharoitlari .....	477
<b>F.Yuldashev</b>	
Abu Nasr Forobiys falsafasida aqliy bilish panteizmi .....	481
<b>Sh.Sh.Qosimova, M.M.Darmanov</b>	
In vitro texnologiyasi asosida maxalliy uzum navlarini ko'paytirish. ....	486
<b>S.H.Po'latov</b>	
Abu Homid al-G'azzolij va Ibn al-Arabiy diniy-falsafiy qarashlarida tasavvuf ta'llimotining rivojlanishi .....	490
<b>H.A.Sulaymonov</b>	
Xorijiy tillar grammatikasini o'qitishning umumnazariy masalalari xususida .....	494
<b>N.T.Mirzaxolov</b>	
Sun'iy intellekt – fan-texnika taraqqiyotining yuksak bosqichi (ijtimoiy-falsafiy tahlil) .....	498
<b>G'.B.Samatov, S.Mo'minjonov</b>	
Ikki atomli gazlarda tebranma-ilgarilanma energiya almashinish ehtimolligini hisoblash .....	502
<b>R.Batirov</b>	
Chaqiriqqacha bo'lgan yoshlarda harbiy-amaliy jismoniy tayyorgarlik konseptual xususiyatlarini rivojlantirishning samarali shakl, metod va vositalari .....	508
<b>G.Kozlova</b>	
Kompetensiyaga asoslangan yondashuvni, ta'lim standartlari va tamoyillarini amalga oshirish zarurati .....	512
<b>V.Isaqov, X.Qoraboyev</b>	
<i>Indigofera tinctoria</i> o'simligi va tuproqdagi makroelementlarning o'zgarishi. ....	515
<b>R.R.Sayfullaeva, N.I.G'aybullayeva</b>	
Salomatlik konseptining lingvomadaniy talqini.....	521
<b>A.G'ofurov</b>	
Bo'lajak jismoniy tarbiya fani o'qituvchilarining sport turizmiga tayyorlashning o'ziga xos xususiyatlari .....	526
<b>N.R.Zakirova</b>	
Ta'lilda yangi texnologiyalarning ustunliklari.....	532
<b>I.Sharofutdinov</b>	
Ta'limdi axborotlashtirish sharoitida bo'lajak pedagoglarning akmeologik kompetentligini rivojlantirish ijtimoiy zarurat sifatida .....	535

## SPORT TURIZMINI RIVOJLANTIRISHNING TASHKILIY VA IJTIMOIY-PEDAGOGIK ASOSLARI

### ОРГАНИЗАЦИОННЫЕ И СОЦИАЛЬНО-ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ПРИНЦИПЫ РАЗВИТИЯ СПОРТИВНОГО ТУРИЗМА

### ORGANIZATIONAL AND SOCIAL AND PEDAGOGICAL PRINCIPLES OF SPORTS TOURISM DEVELOPMENT

**G'ofurov Azizbek Umarjonovich<sup>1</sup>**

**<sup>1</sup>G'ofurov Azizbek Umarjonovich**

– Farg'ona davlat universiteti, o'qituvchi

#### **Annotatsiya**

*Mazkur maqolada sport turizmi tushunchasi, uning tasniflari, sport turizmning maqsadli funksiyasi, motivlari va natijalariga ko'ra farqlanishi hamda O'zbekistonda xalqaro sport musobaqalarini o'tkazish orqali sport turizmini keng rivojlantirish, yoshlarning sport turizmi etikasi, sport turizmi maqsadlari borasidagi bilim va ko'nikmalarni singdirish, dunyoqarashini kengaytirish, shaxsning jismoniy faolligi va ma'nnaviy fazilatlarini shakllantirish sport turizmi madaniyatini rivojlantirishning muhim omili ekanligi to'g'risidagi fikr-mulohazalar bayon qilingan.*

#### **Аннотация**

*В данной статье понятие спортивного туризма, его классификации, дифференциация спортивного туризма по его цели, мотивам и результатам, а также широкое развитие спортивного туризма путем проведения международных спортивных соревнований в Узбекистане, этика детско-юношеского спортивного туризма, знание и взгляды на цели спортивного туризма. Высказывались мнения о том, что привитие умений, расширение мировоззрения, формирование двигательных и духовных качеств человека является важным фактором развития культуры спортивного туризма.*

#### **Abstract**

*In this article, the concept of sports tourism, its classification, the differentiation of sports tourism according to its goals, motives and results, as well as the widespread development of sports tourism through international sports competitions in Uzbekistan, the ethics of youth sports tourism, knowledge and views on the goals of sports tourism. Opinions were expressed that the inculcation of skills, the expansion of the worldview, the formation of the motor and spiritual qualities of a person is an important factor in the development of the culture of sports tourism.*

**Kalit so'zlar:** turizm, turizm madaniyati, sport va madaniy meros, sport turizmi, sport infratuzilmasi, raqobatbardosh sport, sport tadbirleri, faol sport turizmi, sport turizmi sayohatlari.

**Ключевые слова:** туризм, культура туризма, спортивно-культурное наследие, спортивный туризм, спортивная инфраструктура, соревновательные виды спорта, спортивные мероприятия, активный спортивный туризм, спортивно-туристические походы.

**Key words:** tourism, tourism culture, sports and cultural heritage, sports tourism, sports infrastructure, competitive sports, sports events, active sports tourism, sports tourism trips.

#### **KIRISH**

Jahonda turizm sohasini rivojlantirish, uning iqtisodiyotdagi ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati va ulushini yanada oshirish maqsadida turizm bozorini samarali rivojlantirishga asos yaratadigan zamonaviy ilmiy tadqiqotlarga alohida e'tibor qaratilmoqda. Innovatsion iqtisodiyot sharoitida turizm bozorining rivojlanish xususiyatlari va tendentsiyalarini ochib berish hamda uni samarali rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish nuqtai nazaridan ushbu masalaning metodologik-uslubiy va amaliy jihatlarini tadqiq etish bugungi kunda dolzarbli bilan namoyon bo'ladi[20:9].

Turizm turli ijtimoiy-iqtisodiy fanlar tomonidan faoliyat turi va kategoriya sifatida o'rganiladi. Mazkur tushunchani ijtimoiy-falsafiy ma'noda tushunish, uni yaxlit ijtimoiy fenomen sifatida talqin qilish dolzarb vazifalardan biriga aylanmoqda. SHu bois, sayyohlikni ijtimoiy hodisa sifatida tushunish, uning har bir tarixiy davrda konkret mazmunga ega bo'lishi va o'zgaruvchan xarakterini to'g'ri anglesh turizm madaniyatini shakllantirishga asos bo'ladi.

Turizm madaniyatini nazariy-metodologik tadqiqi uning ikki mustaqil tushuncha, «turizm» hamda «madaniyat»ning o'zaro birikuvidan iborat holda tadqiq qilishni taqozo etadi. Turizm o'z mohiyatiga ko'ra, (sayohat) piyoda va ulovlarda yurish, diqqatga sazovor joylarda sayr-tomosha qilish, xushmanzara oromgohlarda dam olish, sof havo, quyosh nurlari va zilol suvlarda chiniqish

demakdir. Bu esa, uning ijtimoiy-madaniy ahamiyatga molik fenomen ekanligidan dalolat beradi[14:16].

### **ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA**

Turizm madaniyatini rivojlantirishning ijtimoiy-falsafiy omillariga oid ilmiy tadqiqotlarda mamlakatimiz faylasuf olimlari tomonidan uning ba'zi jihatlari tadqiq etilgan. Masalan, J.Ya.Yaxshilikov tomonidan milliy turizmga tizimli yondashuv asosları o'rganilgan[23:150]. A.A.Eshtaev[22:6-8] va A.A.Qambarovlar[12:26] O'zbekistonda turizm sohasining ijtimoiy-iqtisodiy omillarining pedagogik ahamiyatini, A.Muzaffarov[15:19] o'zining doktorlik dissertatsiyasida turizm – madaniyatlararo muloqotni pivojlantirish omili ekanligini ilmiy tadqiqot ishlarida asoslagan.

Xorijlik olimlar V.Kvartalnov, M.En'rayt, M.Porter[11; 21; 31:207] ilmiy asarlarida turistik xizmat bozori rivojlanishining umumiy jihatlari o'rganilgan. M.A.Jukova, M.Birjakov V.I.Nikiforov, V.S.Novikovlar turizm bozori jihatlarini asoslagan[6; 10; 16]. Mazkur tadqiqotlar turizm ko'p qirrali jarayon ekanligidan dalolat beradi. Xususan, A.S.Galizdra, O.Yu.Golomidov, C.V.Dusenko kabi olimlarning ilmiy ishlarida turizm fenomenining ijtimoiy-falsafiy jihatlari ilmiy tahlil qilingan[7; 8; 9; ]. Shuningdek, dunyoning yetakchi ilmiy tadqiqot markazlari «Jahon sayyoqlik tashkiloti»[25], «Xalqaro turizm ilmiy tadqiqotlar instituti»da[24] turizmni rivojlantirishga oid ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda.

### **NATIJALAR**

Bugungi kunda xalqaro axborotlar, aloqa vositalari va transport tizimining takomillashuvi turizm sohasini barqaror rivojlantirib, uni xalqaro miqyosdagi ahamiyatini oshirmoqda. O'zbekistonda ham turizm iqtisodiyotini davlatning strategik tarmog'iga aylantirish borasida ko'plab islohotlar olib borilmoqda. Shu nuqtai nazardan ham turizm madaniyatini tadqiq etish va uning ijtimoiy-falsafiy jihatlarini o'rganish global turizm madaniyatini shakllantirishning muhim omili sanaladi.

Turizm o'zining ko'p qirrali tarkibi bilan jamiyat hayotining barcha sohalariga faol ta'sir o'tkazib kelmoqda[13:3]. Hozirgi vaqtda turizm inson hayotining bir sohasi bo'lib, unga dam olish, muloqot qilish, bilim olish, yangi tajribalar va boshqalarga bo'lgan turli xil ehtiyojlarni qondirish imkonini beradi.

So'nggi yillarda O'zbekiston Respublikasida turizm iqtisodiyotning strategik tarmoqlaridan biri sifatida rivojlantirilmoqda. Qator farmon va qarorlar asosida sohadagi imkoniyatlar kengaytirilmoqda. Xususan, fuqarolaridan yurtimizga viza talab etilmaydigan mamlakatlar soni 9 tadan 86 taga yetkazildi, 53 ta davlat uchun "elektron viza" tizimi joriy etildi. Turizm uchun qiyin bo'lgan sohadagi sub'ektlar har tomonlama qo'llab-quvvatlandi, ularga subsidiya va ssudalar berildi. Shuningdek, joylarda sport infratuzilmasini rivojlantirish, xususiy sport inshootlari, mini-futbol, fitnes zallari barpo etish orqali aholini ommaviy sportga keng jalb qilish masalalari ham bu kunning eng dolzarb vazifalaridir[27].

Turizm, sport va madaniy meros sohalarida zamонави boshqaruв mexanizmlarini joriy etish, ilg'or xorijiy tajribaga tayanib, ushbu yo'naliшlarda infratuzilmani jadal rivojlantirish, ob'ektlardan samarali foydalanish, aholiga yetarli shart-sharoitlar yaratish maqsadida Jismoniy tarbiya va sport vazirligi hamda Turizmni rivojlantirish davlat qo'mitasi negizida Turizm va sport vazirligi, uning negizida viloyat bosh boshqarmalari, tumanlarda esa bo'limlari tashkil etildi[26].

Soha faoliyatini tartibga soluvchi normativ asoslarning takomillashuvi, mamlakatimizga keluvchi sayyohlarga qulayliklar yaratish maqsadida viza rejimining erkinlashtirilishi, transport tizimini yaxshilash, aeroport va vokzallarda xizmat ko'rsatish sifatini oshirish, yangi turizm mahsulotlari va turistik yo'naliшlarni ishlab chiqish, nodavlat notijorat tashkilotlarni qo'llab-quvvatlash va boshqalar shular jumlasidandir. Bularning bari shubhasiz mamlakatimizga kelayotgan sayyoohlар oqimini keskin oshirish hamda O'zbekistonga xorijlik sayyoohlар qiziqishini kuchaytirish yo'lida xizmat qildi.

Shuningdek, so'nggi yillarda O'zbekistonning turizm sohasida erishayotgan natijalari xalqaro maydonda ham yuksak e'tirof etilmoqda. Jumladan, O'zbekiston "National Geographic Traveler Awards" tanlovingining «Gastronomik turizm» yo'naliши g'olibi deb e'tirof etildi.

O'zbekiston "Lonely Planet" nashriyoti tomonidan birinchi marotaba Osiyodagi eng yaxshi yo'naliшlар ro'yxatiga kiritildi.

2019 yilda Birlashgan Millatlar Tashkiloti huzuridagi Butunjahon turizm tashkiloti (UNWTO) tomonidan O'zbekiston turizm sanoati eng tez rivojlanayotgan Top-20 mamlakatlari ro'yxatida 4-o'ringa sazovor bo'ldi. Turistlar uchun xavfsiz mamlakatlar reytingida diyorimiz dunyodagi 180 mamlakat orasida 46, MDH mamlakatlari orasida esa 1-o'rinni egalladi.

Bundan tashqari, O'zbekiston "Solo Travel Safety Report 2019" reytingida yolg'iz sayohat qiluvchi turistlar uchun xavfsizligi bo'yicha 5-o'rinni egalladi. "Research House of Asia Media" nashriyoti tomonidan O'zbekiston Osiyodagi eng boy tarixga ega mamlakat deya tan olindi.

Madriddagi "Grandvoyage Tourism Awards" taqdirlash marosimida O'zbekiston «Eng yaxshi rivojlanayotgan turizm yo'nalishi» nominatsiyasida 1-o'rinni egalladi.

Britaniyaning "Guardian" gazetasi O'zbekistonni 2019 yilda borish tavsiya qilingan eng sara 40 mamlakat ro'yxatiga qo'shdi.

"New York Times" O'zbekistonni 2019 yilda borish uchun eng yaxshi joylar ro'yxatiga qo'shdi. Toshkent shahri "Worldwide Cost of Living«ning "Economist Intelligence Unit" yillik hisobotida uchinchi o'rinni oldi. "India's Best Awards – 2019" tomonidan O'zbekiston eng yaxshi madaniy-tarixiy meros bo'yicha eng yaxshi turizm yo'nalishi deb tan olindi.

"The Guardian" nashriyoti O'zbekistonni dam olish uchun eng yaxshi yo'nalish deb tan oldi.

"Global Muslim Travel Index" halol turizm reytingiga ko'ra, O'zbekiston Top-20 mamlakatlar ro'yxatiga kiradi. O'zbekiston Musulmon ayollar sayohati uchun eng munosib mamlakatlar ro'yxatida 8-o'rinda qayd etildi.

"Halal Travel Frontier 2020" hisobotida islomiy merosni qayta tiklash orqali musulmonlar turizmi bozorida O'zbekiston yangi trendga asos solgan mamlakat sifatida dunyoga e'lon qilindi. «Jahon musulmon sayyoohlari indeksi» (Global Muslim Travel Index) reytingida mamlakatimiz 32 – o'rsidan 22 – o'ringa yuqoriladi hamda Islom hamkorlik tashkilotiga a'zo mamlakatlar orasida musulmon sayyoohlarni jalb qilayotgan «eng jozibador» hamda «xavfsizlik va bag'rikenglik darajasi yuqori» bo'lgan 10 ta mamlakat qatoridan o'rinni oldi[19].

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev: "Turizm sohasiga invistitsiyalarini jalb qilish, bo'lajak kadrlar salohiyatini yuksaltirish, ularda turizm madaniyatini oshirish bo'yicha konstruktiv chora-tadbirlar amalga oshiririshimiz lozim"ligini ta'kidlagan holda[1:101], yurtimizda xalqaro sport musobaqalarini o'tkazish orqali sport turizmini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratmoqda[30].

Turizmning asosiy shakli va turlari bilan tanishish shuni ko'rsatadiki, u har qanday holda ijtimoiy-iqtisodiy xarakterga ega. Turizmning turlari va shakkiali xilma-xildir. Turizm turlari turizmning maqsadli funksiyasi, motivlari va natijalariga ko'ra farqlanadi: sport; dam olish; reabilitatsiya; trening; madaniy-ma'rifiy; madaniy va ko'ngilochar tadbirlar; diqqatga sazovor joylarni ko'rish; milliy tarix; sarguzasht; ekspeditsiya; biznes va h.

Insonni sayohat qilishga undaydigan motivlarning birinchi darajasi – bu jismoniy motivatsiya bo'lib, u tana va ruhni tiklashga, sog'liq maqsadlariga, zavq va sportga qaratilgan. Hozirgi vaqtida katta qiziqish uyg'otayotgan turizm turilaridan biri – bu sport turizmi hisoblanadi.

Sport turizmi odadagi turistik muhitdan farqlangan holda sport tadbirlarini tomosha qilish yoki ishtirok etishni o'z ichiga olgan sayohatni anglatadi[4:93]. Sport turizmi jahon sayyoohlilik sanoatining eng tez rivojlanayotgan sektori bo'lib, uning qiymati 7,68 milliard dollarni tashkil etadi [29].

Sport turizmining bir qancha tasniflari mavjud. Shon Gammon va Tom Robinson sport turizmini "qattiq" yoki "yumshoq" sport turizmiga bo'lish mumkinligini taklif qilgan[2:22].

Sport turizmining "qattiq" ta'rifi raqobatbardosh sport musobaqalarida ishtirok etadigan odamlar sonini anglatadi. Odadta bunday tadbirlar tashrif buyuruvchilarni tadbirlarga jalb qiladigan motivatsiya hisoblanadi. Olimpiya o'yinlari, Jahan kubogi, Formula-1 Gran-prisi va NASCAR Sprint Cup seriyasi kabi mintaqaviy musobaqalarni qiyin sport turizmi deb ta'riflash mumkin.

Sport turizmining "yumshoq" ta'rifi turistning rekreatsion sport tadbirlarida ishtirok etish uchun sayohat qilishi yoki bo'sh vaqtini o'tkazish uchun ro'yxatdan o'tishidir. Yumshoq sport turizmi sifatida piyoda yurish, chang'i uchish, yugurish va kanoeda eshkak eshishni ta'riflash mumkin.

Xizer Dj.Gibson sport turizmining uch turi mavjudligini taklif qildi: tadbirlar sport turizmi, mashhur va nostalji sport turizmi va faol sport turizmi[3:156].

Sport tadbirlari turizmi tadbirlarni tomosha qilish uchun shaharga tashrif buyuradigan mehmonlarni anglatadi. Dunyo bo'ylab eng ko'p sayyoohlarni jalb qiladigan ikkita voqeа – Olimpiya

o'yinlari va Jahon kubogi. Ushbu musobaqalar har to'rt yilda bir marta, dunyoning turli shaharlarida o'tkaziladi. Qo'shma Shtatlardagi sport turizmi ko'proq har yili bo'lib o'tadigan tadbirlarga qaratilgan. Milliy futbol ligasining asosiy voqeasi har yili boshqa shaharda yil oxirida o'tkaziladigan Superkubokdir.

Mashhurlar va nostalji sport turizmi shon-shuhrat zallari va musobaqalar o'tkaziladigan joylarga tashrif buyurishni, shuningdek, bayramlarda sport arboblari bilan uchrashishni o'z ichiga oladi.

Faol sport turizmi sport yoki sport faoliyati bilan shug'ullanuvchilarni anglatadi. Regbi, futbol, basketbol va boshqalar faol sport turlari hisoblanadi va dunyoning aksariyat mamlakatlarida har yili ko'plab sport tadbirlari (biz ularni turnir yoki festival deb ataymiz) o'tkaziladi[5:143].

Sport turizmi turli mamlakatlar va mintaqalardagi sport musobaqalariga sayohatni o'z ichiga oladi. Buni yana professional va havaskor turizmga ajratish mumkin. Professional sport turizmi malaka toifalari va sport ustasi unvoni berilgan musobaqalarni o'z ichiga oladi[17:148].

Keng ma'noda sport turizmi dam olish yoki musobaqa uchun sport mashg'ulotlarida qatnashish uchun asosiy yashash joyidan uzoqroqqa sayohat qilish, ommaviy yoki elita darajasida sportni kuzatish uchun sayohatlarni o'z ichiga oladi[4:94].

Sport turizmiga bo'lgan ishtiyoyq turli mamlakatlar va xalqlarning madaniyati va hayoti, tabiatining ajoyib va ko'pincha hatto noyob manzilgohlari, qiziqarli diqqatga sazovor joylari bilan tanishish, muloqot qilishdan zavqlanish va ishonchli do'stlar topish imkonini beradi.

Sport turizmi, birinchi navbatda, turli mamlakatlarga safarlar – bu jamoaviy sport turi bo'lib, unda o'zaro yordam, sport intizomi, o'z-o'zini takomillashtirish, bilim va tajribalarini o'zaro almashish, uzatish an'analarining mavjudligi bilan xarakterlanadi[28].

Sport turizmida diqqatga sazovor joylar bu sayyohta sport bilan bog'liq bo'lgan yo'nalishlarni taqdim etishdan iborat. Diqqatga sazovor joylar tabiiy (istirohat bog'lari, tog'lar, yovvoyi tabiat) yoki sun'iy (muzeylar, stadionlar, savdo do'konlari) bo'lishi mumkin.

Sport turizmining ushbu asosiy yo'nalishida ifodalangan umumiy xususiyatlar muayyan joylarga tashrif buyurishni o'z ichiga oladi:

- stadionlar, arenalar va sport tadbirlari o'tkaziladigan zamонави sport inshootlari yoki noyob sport binolari;

- sport muzeylari; sport merosiga, sport qahramonlari va yetakchilarini sharaflashga bag'ishlangan shon-shuhrat zallari;

- sport mavzusidagi istirohat bog'(park)lari, shu jumladan akvaparklar;
- tabiatni o'rganish uchun ishlab chiqilgan piyoda yurish yo'llari;
- sport chakana savdo do'konlari.

Sport turizmi kurortlari yaxshi rejalashtirilgan va integratsiyalashgan kurort majmualari bo'lib, ularning asosiy yo'nalishi va bosh strategiyasi sport yoki sog'lomlashtirishdir. Ko'pgina hollarda, ushbu dam olish markazlari sport turistiga yuqori sifatli ob'ektlar va xizmatlarni taklif qiladi.

Shu o'rinda ta'kidlashimiz kerakki, sport turizmi zaruriy baza mavjudligini talab etadi. Jumladan, turli inventarlar, maxsus trassa va yo'llar, sport maydonchalari, sport asbob-uskulunalar va h. Sport sayohatlariga qo'yiladigan asosiy talablardan biri bu dam oluvchilarning xavfsizligini ta'minlash hisoblanadi. Sport sayohatlari, safarlarning maqsadiga bog'liq ravishda 2 turga bo'linadi: aktiv va passiv. Birinchi holatda bu qandaydir sport turi bilan shug'ullanish hisoblansa, ikkinchi holatda shunchaki ishtirot etish hisoblanadi[18:35].

### MUHOKAMA

Jismoniy tarbiya va sport sohasida aholining keng qatlamlarini sport bilan shug'ullanishga va sog'lom turmush tarzini yuritishga jalb etish, jismonan sog'lom o'sib kelayotgan avlodni tarbiyalash, sport industriyasi va infratuzilmasini rivojlantirish, oliy sport mahorati sohasida mamlakatimizning xalqaro sport maydonida munosib ishtiropini ta'minlashga qaratilgan yagona siyosatni amalga oshirishdan iborat.

Yurtimizda xalqaro sport musobaqalarini o'tkazish orqali sport turizmini keng rivojlantirish ko'zda tutilgan. Olimpiya, Paralimpiya va Osiyo o'yinlari, jahon, Osiyo championatlari va boshqa xalqaro musobaqa va turnirlarda muvaffaqiyatli ishtiropni ta'minlash uchun istiqbolli sportchilarni saralash, tayyorlash va mahoratini oshirib borish, ular orasidan mamlakat terma jamoalari sifatli sport zaxirasi va tarkibini shakllantirishning samarali tizimi yaratiladi.

Shu o'rinda alohida ta'kidlash kerakki, bugungi kunda sport turizmi kam rivojlangan sohadir. Shuning uchun mamlakatimizda turizm madaniyatini rivojlantirishning yana bir muhim omillaridan biri – bu sport turizmi borasida yuqori sifatli ta'lif berish va mutaxassislar tayyorlashdir. Sport turizmi sohasida ta'lif jarayonini tashkil qilish hozirda tez rivojlanayotgan yo'nalishlardan biri ham hisoblanadi.

Sport turizmini rivojlantirishning muhim istiqbolli yo'nalishi bu, avvalo, kelajakda ushbu soha bo'yicha xizmat qiladigan malakali kadrlarni tayyorlash va ular orqali xalqimiz turizm madaniyatini faol targ'ib qilishdir.

O'zbekiston Respublikasida sport turizmi madaniyatini hozirgi bosqichda rivojlantirishning asosiy ob'ekti yoshlardir. Yoshlarning sport turizmi etikasi, sport turizmi maqsadlari borasidagi bilim va ko'nikmalarini shakllantirish, ularning sport turizmi borasidagi bilimlarini oshirish, dunyoqarashini kengaytirish sport turizmi madaniyatini rivojlantirishning muhim omiliidir.

Sport turizmining asosiy maqsadi: tabiiy to'siqlarni yengib o'tish uchun bilim, ko'nikma, malakalarni rivojlantirish va takomillashtirish, shuningdek, uning asosiy natijasi nafaqat jismoniy, balki insonning ma'naviy va axloqiy yaxshilanishi deb hisoblanishi kerak. Bundan tashqari, sport turizmi tizimi shaxsning jismoniy faoliyiga va ma'naviy fazilatlarini rivojlantiribgina qolmay, balki kelayotgan turistlarni joylashtirish uchun mahalliy infratuzilmani yaxshilashga ham xizmat qiladi.

Sport turizmi turistlarning sarf-xarajatlari orqali iqtisodiy o'sishga katta ta'sir ko'rsatadi. Sport sayyoohlari soni yildan-yilga ortib bormoqda. Butun dunyoda davlatlar o'n minglab sport sayyoohlarining ehtiyojlarini qondirish, ularga yuqori sifatli xizmat ko'rsatish va munosib sport infratuzilmasini taklif qilish uchun sport turizmi industriyasini har tomonlama rivojlantirmoqda. Shiddatli raqobat har bir mamlakatning sport va sport turizmi uchun ideal joy sifatida tobora agressiv reklamasini targ'ib qilmoqda. Tabiiyki, bu holat ko'plab mamlakatlarga sport inshootlari va infratuzilmasini o'zining eng yuqori cho'qqisida saqlashga yordam beradi. Pirovardida, butun turizm tizimining faoliyatini takomillashtirish mintaqqa yoki mamlakatda ixtisoslashtirilgan sport turlarining rivojlanish darajasini oshirishga yordam beradi. Bu esa, o'z navbatida, sport sayyoohlarini u yoki bu davlatga yanada faolroq tashrif buyurishga undaydi.

### XULOSA

Bugungi kunda sport turizmi davlat ko'magida turli jamiyat va klublar, shuningdek, sayohatlar tashkil etishga yordam beruvchi jismoniy tarbiya jamoalari negizida rivojlanmoqda.

Sport turizmining rivojlanishi sport infratuzilmasi uchun ajratilgan resurslarga bog'liq. Sport turizmi sayohatlari tashrif buyuruvchilarni butun dunyo bo'ylab o'zlarining sevimli sport musobaqalari, ob'ektlari yoki manzillariga olib boradi.

Xulosa qilib aytganda, sport va turizm uyg'unligi sog'lom bo'lishning eng yaxshi usulidir. Bugungi kunda har bir insonga mos keladigan, tanlashi uchun juda ko'p turli xil sport turlari mavjud. Jismoniy mashqlar tanamizni kuchli qilishi va bizni doim sog'lom saqlashi uchun juda foydalidir. Shuning uchun har kim sog'lom bo'lishi uchun qo'lidan kelganini qilishi kerak, deb hisoblaymiz.

### ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Mirziyoyev SH.M. Niyati ulug' xalqning ishi ham ulug', hayoti yorug' va kelajagi farovon bo'ladi. – Toshkent, O'zbekiston. 3-jild, 2019. – 400 b.
2. Gammon, Sean; Robinson, Tom (2003)."Sport and Tourism: A Conceptual Framework". Journal of Sport Tourism. №8(1), 2003. – P. 21–26.
3. Gibson, Heather J. Active Sport Tourism: Who Participates? Leisure Studies. №17(2), 1998. – P. 155–170.
4. Gozalova M., Shchikanov A., Vernigor A., Bagdasarian V. Sports tourism. Polish Journal of Sport and Tourism №21(2), 2014. – P. 92–96.
5. Weiler Betty, Hall Colin Michael, eds. Adventure, Sport and Health Tourism. London: John Wiley & Sons Ltd. 1992, pp. 141–58.
6. Birjakov M.B., Nikiforov V.I. Industriya turizma: Perevozki. SPB.: Izdatelskiy dom Gerda, 2007. – 528 s.
7. Galizdra A.S. Fenomen turizma: sotsialno-filosofskiy analiz. Avtoreferat. Saratov, 2006. – 136 s.
8. Golomidova O.Yu. Turizm kak fenomen gorodskoy kulturi. Dissertatsiya na soiskanie uchenoy stepeni kandidata kulturologii. Yekaterinburg, 2019. – 182 s.
9. Dusenko S.V. Sotsiologiya turizma: sotsialno-kulturniy aspekt. – Moskva, 2006. – S. 18-20.
10. Jukova M.A. Industriya turizma: menedjment organizatsii. – M: Finansi i statistika, 2004. – 200 s.
11. Kvartalnov V.A. Turizm. Uchebnik. – M.: Finansy i statistika. – Moskva, 2003. – 320 s.
12. Qambarov A.A. Ziyorathnoma. Monografiya. Farg'onha, 2019. – B. 25–30.
13. Mamatqulov X.M., Bektemirov A.B., Tuxliev I.S., Norchaev A.N. Xalqaro turizm. Darslik. Toshkent, 2007. – 345 b.
14. Mirzarahimov B.X. O'zbekistonda turizm madaniyatini rivojlantirishning ijtimoiy-falsafiy omillari. Falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. – Andijon, 2021. – 149 b.

15. Muzaffarov A.M. Turizm – madaniyatlarnaro muloqotni pivojlantirish omili. Falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. – Toshkent, 2020. – 54 b.
16. Novikov V.S. Innovatsii v turizme. – M.: ITS "Akademiya", 2007. – 208 s.
17. Paxomov V.I. Sportivniy turizm: istoriya razvitiya, napravleniya i vidi, sovremennost. Nauka-2020. № 4 (49) 2021. – S. 148-158. <https://cyberleninka.ru/article/n>
18. Tuxliev I.S., Hayitboev R., Ibodullaev N.E., Amriddinova R.S. Turizm asoslari: O'quv qo'llanma. – Samarqand, 2010. – 247 b.
19. Xalq so'zi gazetasi, 6-aprel 2021 yil.
20. Xudoyorov A.A. O'zbekistonda xalqaro turizmni rivojlantirishning o'ziga xos tashkiliy-iqtisodiy jihatlari. Iqtisod va moliya jurnali, 2019. №8(128). – B. 9-19.
21. Enrayt D. M. i dr. Sistema i sposob priema depozitov v bankomate, vidayushchem nalichnie. – 2007.
22. Eshtaev A. A. Ruzibaev O. M. Rol sprosa i predlojeniy na rinke turistskix uslug v Uzbekistane v usloviyax modernizatsii ekonomiki //Ekonomika i biznes: teoriya i praktika. – 2016. – S. 6-8.
23. Yaxshilikov J.Ya. O'zbekistonda milliy turizmga tizimli yondashuvning ijtimoiy-falsafiy masalalari // Falsafa va hayot jurnali. – 2020. – №1. Maxsus son. – B. 148-152.
24. Tourism human capital development. <https://www.unwto.org/UNWTO-academy>.
25. Global code of ethics for tourism. <https://www.unwto.org/ethics-culture-and-social-responsibility>
26. <https://lex.uz/docs/> O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 31.07.2021 yildagi 477-sun.
27. <https://parliament.gov.uz/uz/events/opinion/34213/>
28. [https://translated.turbopages.org//https://en.wikipedia.org/wiki/Sports\\_tourism#cite\\_ref-1](https://translated.turbopages.org//https://en.wikipedia.org/wiki/Sports_tourism#cite_ref-1).
29. [https://translated.turbopages.org/proxy\\_u//https://en.wikipedia.org/wiki/Sports\\_tourism#cite\\_note-2](https://translated.turbopages.org/proxy_u//https://en.wikipedia.org/wiki/Sports_tourism#cite_note-2)
30. [https://uza.uz/uz/posts/Turizmni rivojlantirish va sportni ommalashtirish masalalari\\_193076](https://uza.uz/uz/posts/Turizmni_rivojlantirish_va_sportni_ommalashtirish_masalalari_193076)
31. Porter M. Competition Moscow: Publishing House Williams, 2001.